

KUZGI BOSHQOLI DON EKINLARI MAYDONLARIDA TARQALGAN BEGONA O'TLAR TURLARINI ANIQLASH NATIJALARI

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1002>

Jurayev Baxriddin Rayxonovich

tayanch doktorant (PhD), Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti

E-mail: baxriddinjurayev06@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ilmiy maqolada Samarqand viloyatining kuzgi boshqoli don ekinlari yetishtiriladigan maydonlarida tarqalgan begona o'tlar turlari aniqlanib, monitoring natijalariga ko'ra, bir yilliklar 17 turi, ikki yilliklar 2 turi, ko'p yillik begona o'tlarning 8 turi keng tarqalganligi aniqlanganligi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: . kuzgi bug'doy, begona o'tlar, bir yillik, ikki yillik, ko'p yillik.

KIRISH

Respublikamizning sug'oriladigan yerlarida paxta, bug'doy yetishtirish, ularning hosildorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashning eng muhim omillaridan biri, bu ekin maydonlarida begona o'tlarga qarshi o'z vaqtida samarali kurashish hisoblanadi.

Ayniqsa, ajriqqa, g'umayga qarshi kurash choralari yetarli bo'lmaganligi ekin maydonlarini foydalanishdan chiqib ketishiga olib kelmoqda. Begona o'tlarga qarshi kurash ko'p kuch va mablag' talab etib, mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi. Begona o'tlarning keltiradigan zararini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, begona o'tlar tez o'suvchi madaniy o'simliklar hosilini 15-24, o'rtacha tezlikda o'sadiganlarnikini 45-66% kamaytirgan. Shuniingdek, begona o'tlar ta'sirida bug'doy hosili – 32, paxta hosili 15-20, javdar hosili – 64, bahorgi sulini – 31, arpaniki – 43, kartoshkaniki – 39, makkajo'xori doni esa 90 % ga pasayib ketgan [3].

Begona o'tlarning zararli ta'siri tufayli dunyoda har yili 35 % hosil yo'qotiladi, MDH mamlakatlarida bu ko'rsatkich o'rtacha 26 % ni tashkil etadi [1,2].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, begona o'tlarning tur va miqdori yildan-yilga ortib bormoqda. Masalan, 70 yillardan keyin MDH mamlakatlarida begona o'tlarning 2 mingdan ortiq turi uchragan bo'lsa, O'zbekistonda esa 72 ta oilaga mansub bo'lgan begona o'tlarning 841 ta turi uchraydi. Jumladan, 519 turi bir yillik, 322 turi esa ko'p yillik begona o'tlarga to'g'ri keladi [4].

Har qanday madaniy o'simlik, xususan, g'o'za – g'alla almashlab ekish tizimida yetishtirilayotgan maydonlarda o'ziga xos moslashgan begona o'tlar vujudga keladi, tarqaladi va bir necha yil davomida bir xil navbatlab ekish yoki agrotexnik, biologik va kimyoviy kurash chora tadbirlarini sust olib borish natijasida maydonlarda begona o'tlar tur miqdorlarini ortib ketishiga, natijada g'o'za va g'alla ekinlari hosildorligini pasayishiga olib keladi.

Matateriallar va metodlar. Yuqoridagilarni e'tiborga olib, bizlar Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanining kuzg'i boshqoli don ekinlari yetishtiriladigan dalalarida tarqalgan begona o'tlarning soni va ularning tur tarkiblarini o'rgandik. Ilmiy tadqiqot dasturi bo'yicha dalalardagi begona o'tlarni aniqlashni I.V.Fetyuxin, A.P.Avdeyenkonni ko'z bilan chamalash (dalaning 8-10 nuqtasida 1 metr radiusda) hamda aniq stasionar usullarda (1m² bo'lgan yog'och ramkalar yasali, dalaning diogonaliga 30 ta nuqtasida) hisobga olindi [5].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Олиб борилган мониторинг натижаларига кўра Самарқанд вилоятининг кuzgi boshqoli don ekinlari yetishtiriladigan maydonlarida bir yilliklar 17 tur, ikki yilliklar 2 tur, ko'p yillik begona o'tlarning 8 turi keng tarqalganligi aniqlandi. O'rganilgan

tajriba dalalarida asosan 1m² da quyidagi begona o'tlar: efemerlardan –lolaqizg'aldoq-12, yulduzo't-4, yelimli lepirodiklis (shudgoro't, gandumak) 5 ta, erta bahorgilardan – qizil tasma, yovvoyi suli, raygras, sho'ra- 6-10; kechki bahorilardan –yovvoyi gultojixo'roz, shamak, g'o'zatikan, qo'ytikan, mingdevona, bangidevona – 4-8; qishlovchi begona o'tlardan –jag'-jag'-7; qurtena-6 dona; ikki yilliklardan qashqarbeda, yovvoyi sabzi 1-2, ko'p yilliklardan esa, g'umay, ajriq, otquloq, qo'ypechak va boshqalar ko'plab tarqalganligi kuzatildi (1-jadval).

1-jadval

G'o'za – g'alla almashlab ekish tizimida g'allazorlarda uchraydigan asosiy begona o'tlarning turlari

No			
Bir yillik begona o'tlar			
	Yulduzo't	Звездчатка	Stellaria media
1.	Yelimli lepirodiklis, shudgoro't, gandumak	Пашенник костенецovidный	Lepyrodielis holosteoides
2.	Lolaqizg'aldoq	Ромерия атогнутая	Roemeria refracta
3.	Qizil tasma	Гречишка птичья	Polygonum aviculare L.
4.	Yovvoyi suli	Овсяг пустой	Avena fatua L.
5.	Raygras	Райграс	Lolium multiflorum
6.	Sho'ra	Марь красная	Chenopodium rubrum L.
7.	Sho'ra	Марь белая	Chenopodium album L.
8.	Yovvoyi gultojixo'roz	Щирица запрокинутая	Amaranthus retroflexus L.
9.	Shamak	Куриное просо	Echinochloa crus galli (L.)
10.	Itqo'noq	Щетинник сизый	Setaria glauca (L.) Beauv.
11.	G'o'zatikan	Дурнишник обыкновенный	Xanthium
12.	Qo'ytikan	Дурнишник колючий	strumarium L.
13.	Mingdevona	Белена черная	Hyoscyamus niger
14.	Bangidevona	Дурман обыкновенный	Datura stramonium L.
15.	Chaqamiq, qumrio't	Подмаренник цепкий	Galium apazine
16.	Jag'-jag', ochambiti	Пастушья сумка	Capsella bursapastoris (L.)
Ikki yillik begona o'tlar			
	Qashqarbeda	Донник лекарственный	Melilotus officinalis Dosr.
17.	Yovvoyi sabzi	Дикая марковь	Daucus carota L.
Ikki yillik begona o'tlar			
18.	Qoqio't	Головчатый	Taraxacum
19.	Otquloq	Щавель	Rumex acetosella
20.	Qirqbo'g'in	Хвощ полевой	Eguisetum arvense L.
21.	G'umay	Сорго аллепское	Sorghum Halepense (L.) Pers.
22.	Ajriq (chayr)	Пальчатая трава, свиной	Cynodon dactylon (L.) Pers
23.	Salomalaykum	Сыт круглая	Cyperus rotundus L.
24.	Yantoq	Верблюжья колючка	Glycyrrhiza glabra L.
25.	Qo'ypechak	Выюнок плевой	Convolvulus arvensis L.

Dala monitoringlari shuni ko'rsatadiki, surunkasiga uch yil davomida g'alladan keyin g'alla ekilgan maydonlarda eng ko'p bir yillik begona o'tlar tarqalishi kuzatilib, ular 54,4% ni, ikki yilliklar-5,1 va ko'p yilliklar esa 40,5 %ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar g'alla maydonlarini begona o'tlar bilan ifloslanish darajasiga nisbatan g'o'za ekilgan dalalarda bir yillik begona o'tlarni 29,3 % ni, ko'p yillik begona o'tlarni esa 33,0 % ni tashkil etganligi aniqlandi.



XULOSA

Shuni aytish joizki, ko'pchilik fermer xo'jaliklarida ekin dalalarida tarqalgan begona o'tlar turlari, ularning biologik xususiyatlarini bilmay turib qarshi kurashish ishlari olib borilmoqda. O'tkazilgan dala monitoringlari asosida ta'kidlash mumkinki, fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishda dalalarda tarqalgan begona o'tlarning tur va miqdorlarini, biologik xususiyatlarini hamda zararlanish darajalarini bilgan holda ularga qarshi agrotekhnika yoki kimyoviy kurash chora tadbirlarini ishlab chiqish lozimligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Захаренко В.А. - Экономика использования пестицидов: Химического общества им. Д.И.Менделеева. Т. XXIII, М., 1978. 46-51 б.
2. Исаев В.В., Березкин Ю.Н., Попов О.В. - Засеренность посевов пшениц и мероприятия по борьбе с сорняками. Рациональное применение гербицидов с учетом засеренности полей. М. Колос, 1985. 73-80 б.
3. Макаров В.Т., Ремезов Н.П. - Почвоведение с основами земледелия. М. МГУ, 1966. 238-239 б.
4. Mamatov K., Mamajonov U. - Zararkunandalar hosildorlikni pasaytiradi //J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 1997. № 2. B. 31.
5. Фетюхин И.В., Авдеенко А.П., Авдеенко С.С., Черненко В.В., Рябцева Н.А.. Методы учета структуры сорного компонента в агрофитоценозах: учебное пособие/сост.:– Персиановский : Донской ГАУ, 2018. – 76 с.